


TurkLang • 2023

Министерство высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан
Бухарский государственный университет
Академия наук Республики Татарстан
Евразийский национальный университет имени А. Н. Гумилёва Министерства образования и науки Республики Казахстан
Стамбульский технический университет

XI МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
ПО КОМПЬЮТЕРНОЙ ОБРАБОТКЕ
ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ

TurkLang
2023

Узбекистан,
Бухара,
20-22 октября 2023 года



**ОДИННАДЦАТАЯ
МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
ПО КОМПЬЮТЕРНОЙ ОБРАБОТКЕ
ТУРКСКИХ ЯЗЫКОВ**

«TURKLANG 2023»

Труды конференции

УДК 004.8+81'32
ББК 81.1

Организаторы:

**Министерство высшего образования, науки
и инноваций Республики Узбекистан**

Бухарский государственный университет

**Академия наук Республики Татарстан
Институт прикладной семиотики**

**Евразийский национальный университет имени Л. Н. Гумилёва
Министерства образования и науки Республики Казахстан
НИИ «Искусственный интеллект»**

Стамбульский технический университет

Научные редакторы:

Д.филол.н. Тоирова Г. И.
Д.филол.н. Абдурахмонова Н. З.
К.пед.н. Юлдашева Д. Н.,
К.т.н. Гатиатуллин А. Р.

Одиннадцатая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang 2023», – Труды конференции. – Казань: Издательство Академии наук Республики Татарстан, 2023. – 1030 с.

ISBN 978-5-9690-1197-7

Сборник содержит материалы Одиннадцатой Международной конференции по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang-2023» (Бухара, Узбекистан, 20–22 октября 2023 г.)

Для научных работников, преподавателей, аспирантов и студентов, специализирующихся в области компьютерной лингвистики и ее приложений.

УДК 004.8+81'32
ББК 81.1

ISBN 978-5-9690-1197-7

© Коллектив авторов, 2023

ОРГАНИЗАЦИОННЫЙ КОМИТЕТ

Председатель – Хамидов Обиджон Хафизович (Бухара, Узбекистан)

Заместитель председателя – Расулов Тулкин Хусенбович – (Бухара, Узбекистан)

ЧЛЕНЫ ОРГАНИЗАЦИОННОГО КОМИТЕТА:

Абдурахмонова Нилуфар (Ташкент, Узбекистан)

Тоирова Гули Ибрагимовна (Бухара, Узбекистан)

Гатиатуллин Айрат Рафизович (Казань, Республика Татарстан, РФ)

Жумаев Рустам Ганиевич – (Бухара, Узбекистан)

Жураев Абдор Туробович – (Бухара, Узбекистан)

Зарипов Гулмурод Тохирович – (Бухара, Узбекистан)

Ражабов Дилшод Зарипович – (Бухара, Узбекистан)

Астанова Гулнора Аминовна – (Бухара, Узбекистан)

Ахмедов Атоуллох Рахматович – (Бухара, Узбекистан)

Эшонкулов Хусниддин Пиримович – (Бухара, Узбекистан)

Юлдашева Дилором Неъматовна – (Бухара, Узбекистан)

Қиличев Байрамали Эргашевич – (Бухара, Узбекистан)

Қодирова Рўзигул Саъдуллаевна – (Бухара, Узбекистан)

Халилова Рухсора Рауповна – (Бухара, Узбекистан)

Хамроева Нафиса Низомиддиновна – (Бухара, Узбекистан)

Хайруллаева Гуласал Файзулло кизи – (Бухара, Узбекистан)

Зарипова Азиза Кахрамоновна – (Бухара, Узбекистан)

INDIVID VA KOMMUNIKATSIYA

*Abuzalova Mexriniso Kadirovna,
Avliyoqulova Lola Bebutovna
Buxoro davlat universiteti
Buxoro, O'zbekiston
mehrinoabuzalova@gmail.com,
lolabehbutova@gmail.com*

Bugungi kun tilshunosligida bosh omil inson ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, inson tilini, uning tashqi olam bilan muloqotini o'rganish barobarida, shu muloqotni yuzaga keltiruvchi nutqiy vaziyat hamda shaxsning ichki xususiyatlari ham tadqiq etiladi. Ularni o'rganishda esa shaxsdagi individual belgilar asos bo'lib xizmat qiladi. Maqolada individ, shaxs, kommunikatsiya kabi tushunchalar bilan bir qatorda ushbu individual belgilarning kommunikatsiya jarayonini tashkil etishdagi ahamiyati ko'rsarib beriladi. Maqolada yoritmoqchi bo'lgan fikrlarimiz verbal hamda noverbal kommunikatsiyani o'z ichiga olgan turli nutqiy vaziyatlar misolida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: individ, shaxs, individuallik, verbal kommunikatsiya, noverbal kommunikatsiya, kodlash, dekodlash, nutqiy vaziyat, paralingvistik vositalar, visual, akustik, taktil, muloqot, kommunikativ, interaktiv, perseptiv.

Manbalarda inson haqida "u borliqning oliy ko'rinishi", "ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot mahsuli", "o'zini o'zi anglovchi eng aqlli mavjudot", "antroposotsiogenez jarayonining bir ko'rinishi", "tana, ruhiyat va ma'naviyatning yig'indisi" degan ko'plab ta'riflar keltirilgan. Inson so'zini izohlash, uning mohiyati, kelibchiqishi, tarixiy taraqqiyoti haqida ham yuzlab qarashlar mavjuddir. Bu tushuncha ijtimoiy fikr tarixida uch xil (mifologik, ilmiy, diniy-nazariy) nuqtayi nazardan o'rganilgan. Hozirgi kunda ham inson omili bir qancha fanlarning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Jumladan, tibbiyot, psixologiya, antropologiya, sotsiologiya, pedagogika, psixolingvistika, tilshunoslik, adabiyotshunoslik va h.k. Biroq har bir fan unga o'zining qarashidan kelib chiqqan holda yondashadi. Jumladan, antroposentrik tilshunoslik rivojida tadqiqotlar markazida inson omili qo'yilmoqda. Masalan, psixologiya shaxsni sezgilar va idrok obrazlari, ong va tuyg'u, muomala, temperament kabi psixologik jarayonlar vositasida o'rgansa, falsafa fanining antropologiya bo'limida inson-individ- shaxs tushunchalari izohlangan. Unga ko'ra, inson tug'ulgan vaqtida individ bo'lib, u jamiyatning bir a'zosi bo'ladi, ulg'aygan sayin o'zining jismoniy holati, mehnat faoliyati, ruhiy dunyosi bilan asta-sekin individdan shaxs darajasiga ko'tarilib boradi.

Individ lotincha "individum" soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, "boʻlinmaydigan" degan maʼnoni anglatadi. Bu atama mustaqil yashaydigan tirik vujud, har bir shaxsni bildiradi. Individ bu atrofimizdagi barcha odamlardir. Yaʼni, jinsi, yoshi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, dini, irqi, kasbi, jismoniy va ruhiy holatidan qatʼi nazar, individ hisoblanadi. Xalqimiz orasida yangi tugʻilgan chaqaloq "yoshiga yetgunicha qirq xil turlanadi" (yaʼni, qirq kishiga oʻxshaydi) degan fikr bor. Va bu qarash fan doirasida ham oʻz ifodasini topgan, desak yanglishmagan boʻlamiz. Yaʼni, har bir individ tugʻilganidan boshlab har kuni oʻsib ulgʻaygani sayin oʻzgarishda boʻladi. Bu oʻzgarish faqat tanadagi jismoniy holatlar boʻlib qolmay, balki aqliy rivojlanish hamda ruhiy holatida ham aks etadi. Statistik maʼlumotlarga qaraganda, dunyo aholisi soni sakkiz milliarddan oshiqdir. Eng hayratlanarlisi shundaki, bu sakkiz milliard individning hech qaysi bir-birini aynan takrorlamaydi. Hattoki, ona organizmida bir vaqtda rivojlanib, bir vaqtda dunyoga keluvchi egizaklar ham bir-biriga toʻlaligicha oʻxshash emas. Yaʼni, ular bir-birlariga qanchalik oʻxshamasinlar, ularning har biriga xos boʻlgan xarakter, temperament, iroda, qobiliyat, iqtidor va shu kabilar takrorlanmasdir. Chunki har bir insonda boshqalarda uchramaydigan, faqat uning oʻzigagina xos boʻlgan, takrorlanmas, xususiy belgilari boʻladi. Bir odamga xos boʻlgan iqtidor, qobiliyat, emotsiya, mimika, ovoz va shu kabilar boshqa bir odamda aynan uchramaydi. Xuddi mana shu belgi sifatlarining oʻziga xosligi bilan individuallik umumiylikka qarshi qoʻyiladi.

Bugungi kunda ommaviy talab darajasiga koʻtarilayotgan psixologiya sohasida har bir insondagi individual belgilarga alohida eʼtibor qaratish nechogʻli muhim ekaniga alohida urgʻu beriladi. Psixologlarning ish uslublariga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, ular oʻz ishlarini, avvalo, mijozlarini tinglashdan, ularni kuzatishdan boshlaydilar. Bu kuzatuv jarayoni qancha davom etishini esa oldindan aytish qiyin. Bu uch kun, bir hafta, ikki oy va hattoki yillab davom etishi mumkin. *"Bu jarayon nihoyatda murakkab boʻlishi bilan birga qiziqarli ham. Chunki, shu vaqt mobaynida siz bemor bilan birga yashashni boshlaysiz. Uning bolaligini u bilan birga quvonch bilan esga olasiz. Xotira daftarlarini varaqlaysiz, maktabdagi doʻstlari, ilk muhabbati bilan tanishasiz. Ish faoliyatidagi yutuqlari-yu, "omadsiz" kunlarigacha u bilan birga boʻlasiz. Bemorni, uning muammosini oʻrganish faqat uni tinglash bilan oʻrganilmaydi, baʼzan siz bemorning qoʻn- u qoʻshnilari, oilasi, hamkasblari, doʻstlari bilan ham muloqot qilishingizga toʻgʻri kelib qolishi mumkin"*, deydi oliy toifali psixolog Donyor

Boboyorov. Bemor bilan muloqot jarayoni psixologga mijoz shaxsini o'rganishga, undagi o'ziga xos individuallikni ko'rishga xizmat qiladi. "Dastlab individuallik antik davrda atoqli yunon faylasuflari Levkipp va Demokrit tomonidan muayyan shakl va mazmunga, ya'ni o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan narsa va hodisalarga, jumladan, atom yoki individ (ya'ni bo'linmas) kabilarga xos jarayonlarni aniqlash jarayonida ma'lum bo'lgan". O'rta asrlar falsafasida esa bu so'z aynan individ tushunchasini ifodalagan. Zero, inson tug'ilishidan tortib, toki uning so'nggi nafasigacha bo'lgan davrda bosib o'tgan umr yo'lida pog'onama-pog'ona o'zligini topadi. Ya'ni, hayotda bo'ladigan har bir hodisa, uchraydigan har bir odam bir tajriba bo'lib, individdan individuallik-kacha o'zgaradi.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, inson bir necha fan va sohalarning tadqiq obyekti sanaladi. Psixolingvistika esa shular jumlasidandir. Bu sohaning obyekti nutqiy faoliyatning subyekti bo'lgan shaxs, til egasidir. Ushbu soha psixologiya va tilshunoslik kesishgan nuqtada vujudga kelgan bo'lib, fanning predmetini belgilashda esa ayrim yevropalik psixolingvistlarning qarashlarini keltirish o'rinli bo'ladi. Jumladan, P.Fress psixolingvistikani "til orqali taqdim etiladigan bizning ekspressiv va kommunikativ ehtiyojlarimiz va vositalarimiz o'rtasidagi munosabatlar haqidagi fan", – deb izohlagan. T.Slamakazu psixolingvistikaning predmeti xususida "muloqot vaziyatining xabarga ta'siri" degan qisqacha xulosaga keldi. Bundan tashqari, Charlz Osgudning ta'kidlashicha, "Psixolingvistika so'zlovchi niyatining muayyan bir kodi (tili)da signalga aylanishi va bu signallar tinglovchining interpretiyasida qaytadan namoyon bo'lishi jarayonlarini o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda, psixolingvistika KOMMUNIKATSIYAning kodlash va dekodlash jarayonlari bilan shug'ullanadi. Alqissa, ushbu olimlar qarashlarini bir joyga jamlaydigan bo'lsak, psixolingvistika sohasi muloqot va kommunikatsiya jarayoni asosida yuzaga kelgan deyish mumkin. Zero, bularning negizi bevosita inson (individ)ga borib taqaladi.

Xo'sh, kommunikatsiya o'zi nima? Uning hosil bo'lishida individ tushunchasining o'rni qanday? Ushbu so'z lotincha "communicatio" so'zidan olingan bo'lib, "umumlashtiraman", "bog'layman" degan ma'noni bildiradi. Ya'ni, tirik (individlar o'rtasidagi o'zaro munosabat va hayvonlar o'rtasidagi signallar almashinuvi) va o'lik tabiatdagi (texnika olami) tizimlar o'rtasidagi o'zaro ALOQA. Individlar esa mana shu kommunikatsiyaning ishtirokchilaridan biridir. Individ tug'ilganidan so'ng tashqi olam bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Oziqlanish, nafas

olish, ko'payish, mehnat qilish, dam olish uning yashashi uchun zarur bo'lgan tabiiy ehtiyojlar sanaladi. Xuddi shular singari bir-birlari bilan o'zaro kommunikatsiya o'rnatishlari ham zaruriy ehtiyoj bo'lib, bu "ehtiyoj" asosida kishilik jamiyati shakllandi deyish mumkin. Neyropsixolog va neyrologist A.Luriyaning ta'kidlashicha, "Insoniyat paydo bo'lgan davrlarda muloqot jarayoni tovushlarsiz amalga oshirilgan. O'ylash mumkinki, birinchi muloqot faol mehnat jarayonida paydo bo'lgan. Bunda ayni bir faoliyatga oid jestlar natijasida muloqot yuzaga kelgan va bu bevosita o'sha faoliyat jarayonining ishtirokchilariga tushunarli bo'lgan. Darhaqiqat, til hali shakllanmagan zamonlarda ham insonlar o'zaro kommunikatsiya o'rnatganlar. Masalan, xalqlar o'rtasidagi urushlar misolida ko'rsak, bugungi kuchli zamonaviy qurollardan tortib, hattoki uchli nayza va o'tkir toshlar bilan jang olib borilgan davrlarda ham odamlar o'zaro aloqa o'rnatganlar. Faqat bunda kommunikatsiya vositasi so'z emas, narsa-buyum (sovuq qurol) bo'lgan. Yoki tarixiy san'at asarlari hamda me'moriy obidalarning bugungi kungacha saqlanib qolingani asosida bundan bir necha yuz, hattoki, ming yillar muqaddam yashab o'tgan ajdodlar bilan o'zaro aloqa yuzaga keladi.

Kishilar o'rtasidagi kommunikatsiya jarayonining eng optimallashtirilgan ko'rinishi bu ularning nutqiy faoliyat asosida muloqot qilishlaridir. "Nutqiy faoliyat – faol, aniq bir maqsadga qaratilgan, til vositasida amalga oshiriladigan va holatlardan kelib chiqqan holda insonlar o'rtasida o'zaro ta'sir qilish, muloqot qilish jarayonidir. Nutqiy faoliyat so'zlash va tushunish jarayonlarining umumlashmasi, nutq yaratilishi va uning qabul qilinishiga oid barcha hodisalardir". Aytaylik, so'zlovchi, ya'ni 1-shaxsda ma'lum bir axborot paydo bo'ladi va ushbu axborotni nutq organlari yordamida havo tebranishi bilan 2-shaxsga (tinglovchiga) yuboradi. O'zaro axborot almashinish hodisasini vujudga keltirgan ushbu jarayon nutqiy muloqot deyiladi. Kommunikatsiya uchun faqatgina axborot uzatish va uning mazmuniy idroki emas, balki nutqiy vaziyat, kommunikativ holat, individning tafakkuri, psixologik holati va boshqalar ham muhim hisoblanadi. Bu kabi nutq mazmunini oldindan belgilab beruvchi omillar, odatda, "muloqot manbayi" sifatida namoyon bo'ladi. Muloqot manbayi esa gapdagi so'zlar ifodalagan mazmunga emas, balki vizual vositalar (ko'z qarashi bilan bog'liq), mimika, imo-ishora, tana xatti-harakati, ovoz tempi, muloqot tempi, urg'u, intonatsiya, ritm, tovushlar artikulyatsiyasi, tildagi dialekt, hattoki, so'zlovchining sog'ligi bilan bog'liq o'rinlardir. Bularning bar-

chasi muloqotning noverbal ko‘rinishlari bo‘lib, “paralingvistik vositalar” deb ham yuritiladi. Noverbal vositalarining sohada uch ko‘rinishi o‘zaro farqlanadi. G. V. Kolshanskiy paralingvistik vositalarni quyidagicha ajratgan:

1. Vizual – ko‘z bilan ko‘rish orqali idrok etish mumkin bo‘lgan omillar (mimika, imo-ishora, xatti-harakat).

2. Akustik – eshitish orqali idrok etiladigan omillar (ovoz tembri, intonatsiya, tovushlarning baland yoki pastligi va h.k)

3. Taktil – ushlab ko‘rish, tegish orqali his qilish mumkin bo‘lgan omillar (turli belgi, ishora, ko‘rinish).

Muloqot – murakkab polifunksional tushuncha. Bu jarayonda individlar o‘zaro axborot almashadilar, bir-birlariga hissiy ta‘sir o‘tkazadilar, bir-birlarini idrok etadilar. Bu funksiyalarning barini o‘zida to‘liq mujassam etishda esa noverbal kommunikatsiya o‘zini namoyish etadi. Ushbu jarayonlarning ayrimlarini esa quyidagi misollar orqali ko‘rib o‘tamiz:

“Agar kimningdir ko‘zlarida tomchi yosh aylanib, labida nim tabassum bo‘lsa, bilingki, bunday insonning ruhiy holatida ikki jarayondan biri hukmron bo‘ladi. Bulardan biri uning ruhi nihoyatda sokin bo‘lib, bu mamnuniyatni ifoda etsa, ikkinchisi kuchli ruhiy og‘riqning aksi bo‘lib, u kuchli alamzadalikni ko‘rsatadi”, – deydi oliy toifali psixolog Nodira Fayziyeva. Ko‘rinib turibdiki, kishidagi bu kabi ruhiy holatlarni ifoda etishda vizual omillar yetakchilik qiladi. Yoxud birgina qoshlarning harakatida ham kishining jarayonga bo‘lgan hayratlanish, jahl, kuchli diqqat, xafalik singari bir qancha munosabatlari aks etadi. Ma‘lumotlarga qaraganda, imo-ishoralar (qo‘l motorikasi), mimika (yuz motorikasi), pantomimika (butun gavda motorikasi) butun axborotning 80 fozini ifodalab berar ekan.

Yig‘i, kulgu, qo‘rquv, jahl va boshqa hissiy emotsiyalar ham noverbal kommunikatsiyaning eng faol ko‘rinishlaridan biridir. Raqs tushish, jismoniy mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish, yakka va jamoaviy sport mashg‘ulotlari esa butun gavda motorikasining yorqin namunasidir. Ayniqsa, jamoaviy sport o‘rinlari (futbol, basketbol, volleybol va boshqalar) orqali namoyon bo‘luvchi tana harakatlari asosida muloqotning kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o‘zaro birgalikda harakat qilish), perseptiv (birgalikda tushunish) idrok qilinishi amalga oshiriladi. Bundan tashqari, qo‘l motorikasi bilan bog‘liq o‘rinlardan biri – salomlashish ham kishilarning milliy-madaniy odatlari jihatdan bir-biridan farqlanadi. Masalan, o‘ng qo‘lni ko‘ksning ustiga qo‘yish (o‘zbek xalqi), qo‘llarni o‘zaro juftlash (hind xalqi), qo‘llarni o‘zaro

juftlab bosh va gavgdani biroz egish (koreys xalqi), kaftlarning orqasini o'zaro bir-biriga tegizish (afrika xalqlaridan biri) milliy-madaniyatini aks ettiradi. Psixologizm hodisasini ilmiy-nazariy muammo sifatida tadqiq qilish borasida shuni ta'kidlash lozimki, psixologik matn markazida inson obrazi turar ekan, uning ruhiy olamini kashf etish, ichki olamida kechuvchi tizginsiz evrilishlarni tasvirlash, yozuvchining badiiy fantaziya imkoniyatlarini o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, badiiy matnlarda psixologizm ko'rinishlari, ularning obraz fe'l-atvorini ko'rsatib berishdagi badiiy vazifalari, badiiy lirik qahramonning ichki olami, ma'naviy dunyoqarashi, olam va odam haqidagi falsafiy qarashlari ham o'z ifodasini topishi bilan bog'liq muammolar yuzasidan ilmiy asoslangan masalalarni hal etishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Odatda, muloqotning verbal ko'inishi bilan noverbal ko'inishiga kommunikatsiyaning mukammal bir butunligi sifatida qaraladi. Chunki, ular o'zaro bir vaqtda yoxud ketma-ket sodir bo'lish orqali bir-birini to'ldirib turadi. Ammo bu ikki muloqot shakli doim ham bir xil axborotni uzatish uchun xizmat qilavermaydi. Ba'zida ular bir-birini mutlaqo rad etuvchi axborotlarni ham ifodalashi mumkin. Bu hodisa odatda, nutq vaziyati va insonning (ba'zan axborot uzatuvchining, ba'zan axborotni qabul qiluvchining) ruhiy holati bilan bog'liq holda amalga oshadi. Masalan, ko'pchilik insonlar yolg'on gapirgan vaqtlarida, turli imo-ishora va xatti-harakatlarni namoyish etadilar (ko'zni tinglovchidan olib qochish, turli qo'l va barmoq harakatlari). Bunday vaziyatlarda so'zlovchining so'z orqali uzatayotgan axboroti bilan xatti-harakatlari bir-birini rad etadi. Fikrimizni yanada tiniqroq ifoda etish maqsadida dunyoga mashhur detektiv filmlardan biri bo'lgan "Erkyul Puaro" filmidagi quyidagi o'ringa diqqat qaratamiz: Tasodifiy avtohalokat tufayli vafot etgan erining o'chini olish maqsadida mashina haydovchisiga bir necha bor qasddan suyuqasd uyushtirgan Emma ismli ayolning navbatdagi tergov jarayonidan lavha:

Tergovchi: – *Aytingchi, xonim, qilgan ishingizdan chindan ham pushaymonmisiz?*

Ayblanuvchi: – *Ha janob, pushaymonman. O'sha vaqtda kuchli depressiya ta'sirida bo'lganman.*

Ammo hozir qilgan ishim qanchalik noto'g'ri ekanini tushunib yetdim.

Tergovchi: – *Demak, sizni ozod qilsak, bunday noma'qul harakatlarni boshqa amalga oshirmaysiz, shundaymi?*

Ayblanuvchi: – *Yo'q, aslo!*

Tergovchi: – *Xo‘p yaxshi, ammo biz sizni qo‘yib yubora olmaymiz. Aksincha, oldingidan ham qattiq nazoratda ushlab turamiz. Chunki, siz qilgan ishingizdan mutlaqo pushaymon emassiz, aksincha, bu yerdan tezroq qutulib, yangi rejangizni amalga oshirishga shoshilmoqdasiz!*

Xo‘sh, ushbu lavhada tergovchi nima sababdan bunday xulosaga keldi?, degan savol tug‘iladi. Javob esa juda oddiy. Ayblanuvchi ayol “Yo‘q, aslo qilmayman”, degan vaqtda nutqdagi “**inkor**” ma‘nosini ifoda etuvchi (boshni o‘ng va chapga qisqa-qisqa harakatlantirish) harakatni emas, balki “**tasdiq**” ma‘nosini beruvchi (boshni yuqoridan pastga harakatlantirish) harakatni amalga oshirdi. So‘z va harakatning bir-biriga mutanosib emasligi esa uning miyasidagi chalkashliklar, ya‘ni ikkilanishni ifodalaydi. Bundan tashqari, ayblanuvchi o‘zining pushaymonligini tushuntirayotgan vaqtda tergovchiga nihoyatda kuchli nigoh bilan qarab turishi ham tergovchida shubha uyg‘otadi. Chunki, odatda, insonlarga bunday nigoh bilan qarash ularni nimagadir ishontirish uchun qo‘llaniladi. Pushaymonlik holatida esa ko‘pincha, nigohlar yerga qaratilgan, bosh esa xiyol egilgan holatda bo‘ladi. Ko‘pchilik tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olingan “Chuqur” nomli turk serialidan olingan ushbu muloqot jarayoniga diqqat qiling:

“Sen meni la‘natimsan. Sen tufayli boshimga kelmagan kulfat qoldi, yoki qoldimi, aytchi?”

Qoldi, faqat jahannamning olovi qoldi. Ammo qara, men ketmadim, men hamon yoningdaman”.

Qizning o‘z suhbatdoshiga aytgan so‘zlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, undagi so‘zlar ma‘no jihatdan **salbiy munosabatni** aks ettiradi, biroq qizning mimikasi, ya‘ni yuz ifodasi matnni aks ma‘noda tushunishga imkon yaratadi. Ya‘ni, qizning samimiy tabassumi, xotirjam nigohlari uning ushbu nutqi qarshisidagi insonga nisbatan nafratni ifodalash uchun emas, balki **mehrni** ko‘rsatish uchun qo‘llanilganini tushunish qiyin emas. Kommunikatsiya jarayonidagi shu va shunga o‘xshash boshqa muloqot vaziyatlari psixolingvika hamda paral-ingvistika hamkorligida o‘rganiladi. Zero, inson “tana, ruhiyat va ma‘naviyatning yig‘indisi”. Bundan ko‘zlangan yagona maqsad esa insonning muloqot jarayonini va u orqali inson shaxsini o‘rganishdir.

ADABIYOTLAR:

1. Fraisse P. La psucho-linguistique//Problems de psucho-linguistique. – Paris, 1965. – P.5
2. Jumayeva N. Individ, shaxs va individuallik tushunchalari. Maqola. – Toshkent, 2021-B.2

3. Лурия А. Основы нейропсихологии. – Москва: Академия, 2003 – С. 184
4. Osgood Che. E. Psychology: a Study of Science. – New York, 1963. V.6
5. Slama-Cazacu T. Indrotion to Psucholinguistics.–The Hauge – Parij, 1973. – P. 57
6. Temirova F. Noverbal kommunikatsiya – paralingvistikaning o‘rganilish tarmog‘i sifatida. Maqola. – Toshkent, 2021
7. Xolmonova Z., Usmonova Sh. Psixolingvistika. – Toshkent, 2018 – B. 14
8. Абузалова М.К. Лингвистика ва тиббиёт ҳамкорлиги ижтимоий зарурат сифатида/”Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Buxoro: Tadqiqot.uz, 2021.– B 19.
9. Юсупова Д.Ю. Ҳ.Худойбердиеванинг сўзларни кўчма маънода қўллаш маҳорати//НамДУ илмий ахборотномаси – Научный вестник НамГУ 2021 йил 6-сон. – 395-402- б.

СОДЕРЖАНИЕ

ПРЕДИСЛОВИЕ	13
ЗАПРЕТЫ НА СОЧЕТАЕМОСТЬ МОРФЕМ В ХАКАССКОМ АВТОМАТИЧЕСКОМ МОРФОЛОГИЧЕСКОМ ПАРСЕРЕ. <i>А. В. Дыбо, В. С. Мальцева, Э. В. Султрекова, А. В. Шеймович, Ф. С. Крылов</i>	15
ПРОБЛЕМА МОДЕЛИРОВАНИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ СИНТАКСИЧЕСКИХ СЛОВСОЧЕТАНИЙ В ПРЕДЛОЖЕНИИ. <i>О. Х. Абдуллаева</i> ...	27
К ФОРМАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ТЮРКСКОГО ИМЕННОГО СОГЛАСОВАНИЯ: ДАННЫЕ КУМЫКСКОГО ЯЗЫКА <i>О. В. Федорова, С. Г. Татевосов</i>	39
О СКАЛЯРНОМ ХАРАКТЕРЕ ЧИСЛОВОЙ НЕЙТРАЛЬНОСТИ. <i>С. Г. Татевосов</i>	47
СЛОВОИЗМЕНТЕЛЬНЫЕ ПАРАДИГМЫ РУССКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В ТУВИНСКОМ ЯЗЫКЕ, ОКАНЧИВАЮЩИЕСЯ НА СТЕЧЕНИИ СОГЛАСНЫХ -РТ. <i>Э. К. Аннай., Б. Ч. Ооржак, Ч. Г. Ондар, Н. М. Монгуш</i>	56
ЛЕКСИЧЕСКО-ГРАММАТИЧЕСКИЕ СТРУКТУРЫ АГГЛЮТИНАТИВНЫХ ЯЗЫКОВ ДЛЯ РАЗРАБОТКИ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ОБРАБОТКИ ИНФОРМАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ ТАТАРСКОГО ЯЗЫКА). <i>Дж. Ш. Сулейманов, Р. А. Гильмуллин, И. Р. Мухаметзянов, А. Я. Фридман</i> ..	64
КОМБИНАТОРНЫЕ СВОЙСТВА ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ. <i>Б. А. Юнусова</i>	73
НЕВЕРБАЛЬНЫЕ КОМПОНЕНТЫ КОММУНИКАЦИИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ФОЛЬКЛора. <i>Д. Б. Уринбаева</i>	77
ОБЗОР: «ИНТОНАЦИОННАЯ МОДЕЛЬ ДЛЯ ПРОСТЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ НА КАЗАХСКОМ ЯЗЫКЕ ДЛЯ КАЗАХСКОГО РЕЧЕВОГО СИНТЕЗАТОРА». <i>Енлик Кадыр, Бибигуль Разахова, Айжан Назырова</i> ...	82
НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О НЕВЕРБАЛЬНЫХ КОММУНИКАЦИЯХ. <i>Г. Х. Хасанова</i>	89
ДИАЛЕКТОМЕТРИЯ И АЗЕРБАЙДЖАНСКИЙ ЯЗЫК: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ <i>Афруз Гурбанова, Мехрибан Багирова</i> ...	98
ПОСЛЕДСТВИЯ ФЕНОМЕНА СИНКРЕТИЗМА ДЛЯ СИНСЕТОВ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ОНТОЛОГИЙ. <i>М.А. Абжалова</i>	113
ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ МЕТОД ОЦЕНКИ СТЕПЕНИ ИСТИННОСТИ ЭТИМОЛОГИЙ ОГУЗСКИХ ЭТНОНИМОВ СПИСКА М. КАШГАРИ, <i>И. А. Исмаилов</i>	122

ЛИНГВОПРОЦЕССОРЫ

МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЬ (АНАЛИЗ И СИНТЕЗ) ДЛЯ ЯКУТСКОГО ЯЗЫКА <i>В. Н. Кортегосо, В. П. Захаров</i>	132
---	-----

МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СЛОВОФОРМ В УЗБЕКСКОМ, КАРАКАЛПАКСКОМ И КЫРГЫЗСКОМ ЯЗЫКАХ, ПРИНАДЛЕЖАЩИХ К ТЮРКСКОЙ СЕМЬЕ ЯЗЫКОВ. <i>Эльмира Назирова, Нилуфар Абдурахмонова, Шахноза Абидова, Мамура Узакова</i>	152
МОРФОНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗАТОР ЯЗЫКА САХА: ОПЫТ РАЗРАБОТКИ И АПРОБАЦИИ. <i>Г. Г. Торотоев, В. В. Бочкарев</i>	158
РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ ПРОВЕРКИ ОРФОГРАФИИ ТУВИНСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ HUNSPELL. <i>Ч. Г. Ондар, А. В. Чемышев, Ч. Б. Хуурак</i>	166
МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДЛЯ СБОРА ТЕКСТОВЫХ ДАННЫХ В НАЦИОНАЛЬНОМ КОРПУСЕ КЫРГЫЗСКОГО ЯЗЫКА. <i>Т. С. Садыков, Т. Туратали, А. Б. Турдубаев</i>	178

КОРПУСНАЯ ЛИНГВИСТИКА И КОРПУСНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

ПРОБЛЕМЫ КЫРГЫЗСКОЙ СИНТАКСИЧЕСКОЙ АННОТАЦИИ В ФРЕЙМВОРКЕ UNIVERSAL DEPENDENCIES. <i>Касиева Аида, Джумалиева Гульнара, Томпсон Анна, Юмашев Мурат, Чонтаева Бермет, Джонатан Вашингтон</i>	189
АННОТАЦИЯ ГРАММАТИЧЕСКИХ ОШИБОК В ТЕКСТАХ НА ТАТАРСКОМ ЯЗЫКЕ С ПОМОЩЬЮ ИНСТРУМЕНТОВ КОРПУС-МЕНЕДЖЕРА. <i>Б.Э. Хакимов, Д. Р. Мухамедшин, З. И. Садыкова</i>	216
ИССЛЕДОВАНИЕ АВТОМАТИЧЕСКОГО ФОРМИРОВАНИЯ СИНТЕТИЧЕСКИХ КОРПУСОВ РЕЧИ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ. <i>У. А. Тукеев, Жандос Толеубеков, Толганай Балабекова, Жандос Жуманов, Бигелди Темирханов</i>	224
ВОЗМОЖНОСТИ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОРПУСНЫМИ ДАННЫМИ ДЛЯ РАБОТЫ С КОРПУСОМ КРЫМСКОТАТАРСКОГО ЯЗЫКА. <i>Д. Р. Мухамедшин, Б. Э. Хакимов, Л. Ш. Кубединова</i>	236
ТАТЭС: ПЕРВЫЙ БОЛЬШОЙ ОТКРЫТЫЙ РЕЧЕВОЙ КОРПУС ТАТАРСКОГО ЯЗЫКА. <i>Р. А. Гильмуллин, Б.Э. Хакимов, М. Р. Галимов</i>	249
ОСОБЕННОСТИ ДИАЛЕКТНОГО СИНТАКСИСА БАШКИРСКОГО ЯЗЫКА (НА МАТЕРИАЛЕ ТЕКСТОЛОГИЧЕСКОЙ БАЗЫ ДИАЛЕКТОЛОГИЧЕСКОГО ПОДФОНДА МАШИННОГО ФОНДА БАШКИРСКОГО ЯЗЫКА). <i>Л. А. Бускунбаева</i>	263
АНАЛИТИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПО СМЫСЛОВОМУ РАСПРЕДЕЛЕНИЮ СЛОВ В УЗБЕКСКОМ КОРПУСЕ. <i>Исроилов Жасур, Абдурахмонова Нилуфар</i>	269
ОБРАБОТКА НЕСТРУКТУРИРОВАННЫХ ДАННЫХ ДЛЯ КОРПУСА КАЗАХСКОГО ЯЗЫКА. <i>А. Н. Шормакова, Д. Р. Рахимова</i>	285

О СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКОМ МОДЕЛИРОВАНИИ НА МАТЕРИАЛЕ КОРПУСНЫХ ПРОЕКТОВ БАШКИРСКОГО ЯЗЫКА. <i>З. А. Сиразитдинов</i>	291
ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ ИНОЯЗЫЧНЫХ ФАРМАКОФИТОНИМОВ В БАЗЕ ДАННЫХ МФБЯ И В УСТНОМ ПОДКОРПУСЕ СМИ. <i>А. Ш. Ишмухаметова</i>	298
СОЗДАНИЕ АВТОРСКОГО КОРПУСА ЗАХИРИДДИНА МУХАММАД БАБУР – ТРЕБОВАНИЕ ПЕРИОДА. <i>М. А. Абжалова</i>	305
ВОЗМОЖНОСТИ АНАЛИЗА КЛАССИФИКАЦИИ ДИАЛЕКТОВ И ЯЗЫКОВ НА ЛИНГВОДОКЕ (на примере говоров северо-западного наречия башкирского языка). <i>Ю. В. Норманская</i>	311
СОЗДАНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ ЯЗЫКОВОГО КОРПУСА В УЗБЕКИСТАНЕ. <i>Г. И. Тоирова</i>	325
UZBEKCORPORA.UZ: СОЗДАНИЕ КОНКОРДАНСА И ЕГО АНАЛИЗ. <i>А. Б. Каршиев, С. А. Каримов, М. С. Турсунов</i>	342
РЕФЛЕКСИЯ В ЯЗЫКОВОМ КОРПУСЕ АНТРОПОНИМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ. <i>Г. И. Тоирова</i>	352

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ

БАЗА СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ И ЯЗЫКОВЫХ ДАННЫХ ПО ТЮРКСКИМ ЭТНОСАМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН. <i>И. А. Невская</i>	357
БАЗЫ ЗНАНИЙ ПОРТАЛА «ТЮРКСКАЯ МОРФЕМА»: СОСТОЯНИЕ, ПЕРСПЕКТИВЫ. <i>А. Р. Гатиатуллин, Н. А. Прокопьев, Дж. Ш. Сулейманов</i>	370
СОЗДАНИЕ БАЗЫ ДАННЫХ ПОЛИТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА НА КАЗАХСКОМ ЯЗЫКЕ. <i>А. Д. Сайранбекова, Л. О. Орынбай, А. Ж. Укенова, А. А. Шарипбаев, Б. Ш. Разахова</i>	389
РУССКО-ТАТАРСКИЙ МАШИННЫЙ ПЕРЕВОДЧИК: ПОДГОТОВКА ДАННЫХ ДЛЯ ЗАПОЛНЕНИЯ БД РУССКО-ТАТАРСКИХ ПАРАЛЛЕЛЬНЫХ ТЕКСТОВ. <i>Мадехур Аюпов</i>	398
ТЕЗАУРУС ПО МАТЕМАТИКЕ СРЕДНИХ ШКОЛ НА КАЗАХСКОМ ЯЗЫКЕ. <i>А. А. Шарипбаев, А. К. Альжанов, С. А. Нариман, Г. Ж. Ахметова</i>	404
РЕСУРСЫ СИСТЕМ АВТОМАТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА ТЕКСТА. <i>М. А. Абжалова, М. А. Адилова</i>	413
ПРОЕКТИРОВАНИЕ ЭКСПЕРТНОЙ СИСТЕМЫ «DIALECTEXPERT» С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ. <i>Р. А. Бурнашев, М. Р. Галимов</i>	423
ПОРТАЛ IT-РЕСУРСОВ ПО РАСШИРЕНИЮ ФУНКЦИЙ И ПОВЫШЕНИЮ КУЛЬТУРЫ КАЗАХСКОГО ЯЗЫКА. <i>А. А. Шарипбай, Г. Т. Бекманова, Б. Ж. Ергеиш, Алтынбек Зулхажав, А. С. Омарбекова, А. С. Муканова</i>	428

СОЗДАНИЕ БАЗЫ ДАННЫХ БУДДИЙСКИХ ТЕКСТОВ ХРАМА «ЦЕЧЕНЛИНГ». <i>А. Я. Салчак, А. Б. Хертек</i>	436
О ВЫРАЖЕНИИ ЯЗЫКОВЫХ ТЕРМИНОВ В ЭНЦИКЛОПЕДИЧЕСКОМ СЛОВАРЕ. <i>Дилрабохан Рустамова</i>	441

МАШИННОЕ ОБУЧЕНИЕ

РАЗРАБОТКА МОДЕЛЕЙ НЕЙРОННОГО МАШИННОГО ПЕРЕВОДА ДЛЯ КАЗАХСКО-РУССКОЙ ПАРЫ ЯЗЫКОВ. <i>В. И. Карюкин, Н. З. Абдурахмонова</i>	450
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДА TRANSFER LEARNING К ЗАДАЧЕ МАШИННОГО ПЕРЕВОДА ДЛЯ ПАРЫ РУССКИЙ-ХАКАССКИЙ. <i>А. Ю. Лебедева</i>	460
РАСПОЗНАВАНИЕ ИМЕНОВАННЫХ ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ МЕТОДОВ ГЛУБОКОГО ОБУЧЕНИЯ ТАТАРСКОГО ЯЗЫКА. <i>В. Р. Гафарова, Ф. М. Гафаров</i>	472
ПОСТРОЕНИЕ АЛГОРИТМА ПОЛУЧЕНИЯ СИНОНИМА ИЗ МЕДИЦИНСКИХ ТЕКСТОВ ДЛЯ КАЗАХСКОГО ЯЗЫКА. <i>Д. Р. Рахимова, А. С. Кармбаева, Е. Р. Сулейменов</i>	486

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ СИСТЕМЫ И ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ АЛТАЙСКОМУ ЯЗЫКУ. <i>Ч. П. Сабина</i>	495
МОБИЛЬНОЕ ПРИЛОЖЕНИЕ «ТЫВАЛАП ЧУГААЛАЖЫЫЛ» ‘ПОГОВОРИМ ПО-ТУВИНСКИ’. <i>С. А. Мылдыргыновна</i>	500
ПРИМЕНЕНИЕ STEAM-ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТУВИНСКОГО ЯЗЫКА. <i>А. К. Тарыма, А. М. Чулдум</i>	505

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ

МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАСЧЕТА НОРМ ЯЗЫКА ОРТАТЮРК КАК МОДЕЛЬ ЯЗЫКОВОГО РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ. <i>Б. Р. Каримов, Ш. Ш. Муталов</i>	510
УЗБЕКСКИЙ НЕЙРО МАШИННЫЙ ПЕРЕВОДЧИК НА БАЗЕ VART: ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МНОГОИСТОЧНИКОВЫХ ДАННЫХ. <i>А. И. Зохилов, Н. З. Абдурахмонова, А. М. Нарзуллаев</i>	518
МОДЕЛИРОВАНИЕ КАРАКАЛПАКСКОЙ ГЛАГОЛЬНОЙ ГРУППЫ ДЛЯ ЭТАПА МОРФОАНАЛИЗА. <i>А. З. Отемисов, Шарбаев Жарас</i>	527
ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ РЕАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА “КРАСОТА” В УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ ЭЛЕКТРОННЫХ КОРПУСАХ. <i>Т. Р. Яндашева</i>	534
КОМБИНАТОРНЫЕ СВОЙСТВА ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ. <i>Б. А. Юнусова</i>	542

МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ СОЧЕТАНИЯ ОТ-ЛЕММ ДЛЯ ЯЗЫКОВЫХ КОРПУСОВ И ИХ ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ. С. А. Каримов, С. М. Умирова, Б. Ф. Холмухамедов, Дж. У. Туркашев	546
ОСНОВАННЫЙ НА ЗНАНИЯХ WSD ПОДХОД В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ. Н. З. Абдурахмонова, Ж. Б. Исроилов	559
РАЗРАБОТКА УЗБЕКСКО-АНГЛИЙСКОЙ ДВУЯЗЫЧНОЙ ПРОГРАММЫ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИРОВАНИЯ ГРАММАТИЧЕСКИХ КАТЕГОРИЙ ГЛАГОЛОВ И МОРФОЛОГИЧЕСКОГО АНАЛИЗА ДЛЯ МАШИННОГО ПЕРЕВОДА. Э. Ш. Назирова, Н. З. Абдурахмонова, Усмонова Камола	563
МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В УЗБЕК-СКО-АНГЛИЙСКИХ ЯЗЫКАХ ДЛЯ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ «ALIGNER». Ш. М. Хамроева, Н. Ш. Матъякубова, А. Ю. Даулетов	571
КЛАССИФИКАЦИЯ ФЕЙК-НОВОСТЕЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ ТЕГОВ И N-ГРАММ. Б. Б. Элов, Н. У. Худайбергенов, З. Ю. Хусаинова	580
ОБРАБОТКА КОРПУСНЫХ ТЕКСТОВ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА МЕТОДАМИ WORD2VEC, GLOVE, ELMO, BERT. Б. Б. Элов, Р. Х. Алаев, З. Ю. Хусаинова, А. У. Юлдашев	594
ТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ SVD И NMF. Б. Б. Элов, А. У. Юлдашев, Н. Р. Алоев	602
ПРАКТИКА МАШИННОГО ПЕРЕВОДА В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ОБЗОР. М. М. Кадирова	612
ВАЖНОСТЬ ПРОГРАММЫ ALIGNER ДЛЯ ПАРАЛЛЕЛЬНОГО КОРПУСА. И. А. Холмонова	627
МЕТОДЫ ONE-HOT КОДИРОВАНИЯ И МЕШКА СЛОВ ПРИ ОБРАБОТКЕ КОРПУСА ТЕКСТОВ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА. Б. Б. Элов, Ш. М. Хамроева, Н. Ш. Матъякубова, У. С. Йодгоров	635
ОПРЕДЕЛЕНИЕ ОМОНИМОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ С ПОМОЩЬЮ АЛГОРИТМА ЛЕСКА. Б. Б. Элов, Х. И. Ахмедова	642
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТЕКСТОВЫХ ДАННЫХ. М. Х. Примова	653
СОЗДАНИЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ БАЗЫ ДАННЫХ ДЛЯ АВТОРСКОГО КОРПУСА АЛИШЕРА НАВОИ. М. А. Абжалова, Н. С. Гуломова	659
ФОРМИРОВАНИЕ РЕЧЕВОЙ БАЗЫ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА. С. Н. Ибрагимова, М. И. Абдуллаева	670
МЕТОД СЕНТИМЕНТ АНАЛИЗА, ОСНОВАННЫЙ НА ЛЕКСИКЕ. С. Ю. Алланазарова	679
NER: МЕТОДЫ АВТОМАТИЧЕСКОГО ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТОПОНИМОВ В ТЕКСТАХ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ. Б. Б. Элов, М. Т. Саматбоева	685

ФИЛОЛОГИЯ

ИНДИВИДУАЛЬНОСТЬ И КОММУНИКАЦИЯ	696
ЛЕКСИКА ОРХОНСКИХ ПАМЯТНИКОВ И ЕЁ ОТРАЖЕНИЕ В КАРА- КАЛПАКСКОМ ЭПОСЕ «ҚЫРҚ ҚЫЗ»	705
ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА УЧЕБНОГО ДИСКУРСА И ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА	711
МЕСТО ЛИНГВИСКОКУЛЬТУРНЫХ ЕДИНИЦ, РЕПРЕЗЕНТИРУЮ- ЩИХ УЗБЕКСКИЙ МЕНТАЛИТЕТ, В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ . .	718
КОММЕНТАРИИ К ЖАНРАМ, СВЯЗАННЫМ СО СКАЗКАМИ	725
ЗНАЧЕНИЕ ПАМЯТИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПОРТРЕТЕ	730
ЭТНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПЕ- РИФРАСОВ	734
ДЕТСКИЕ ПЕСНИ, СОЗДАННЫЕ НА МОТИВЫ НАРОДНЫХ ПЕСЕН . .	741
ВЫРАЖЕНИЕ СЛОВ В СЛОВАРЯХ С НАРЕЧНЫМИ -ОНА АФФИК- САМИ	745
ИЗУЧЕНИЕ АРАБСКИХ СОГЛАСНЫХ ГРУППАМИ	750
ОКАНЬЕ В СИСТЕМЕ ГЛАСНЫХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА	756
ПЕРЕЁНИМЫ – ОДИН ВИД ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ	761
СЕМАНТИКА ОБРАЗОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «МЫШЛЕННЫЕ ДНИ» АБДУЛЛЫ КАДИРИ	765
ГЕНДЕРНОЕ НЕРАВЕНСТВО И НАСИЛИЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КОРЕЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ	771
СОСТАВ УЗБЕКСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ	782
TALMENING ERKIN VOHIDOV SHE'RLARIDAGI BADIY VAZIFALARI	787
SOME THOUGHTS ON TEACHING VISUAL EXPRESSIVENESS OF THE UZBEK LANGUAGE IN RUSSIAN-SPEAKING GROUP	791
REALIYALAR MILLIY MADANIYATNI ANGLATUVCHI BIRLIK SIFATIDA	797
INTONEMES ARE REPRESENTATIVES OF THE INTERNAL STATE OF THE COMMUNICANT	802
THE IMPORTANCE OF PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF LANGUAGE TASKS IN INTERNATIONAL COMMUNICATION	809
ХУДОЖЕСТВЕННО-КОМПОЗИЦИОННЫЕ ЗАДАЧИ ЭПИСТОЛАРНОЙ ПУБЛИЦИСТИКИ И ЛЕТРИСТА В ДЕТСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ	816
LINGUISTIC CULTURE UZBEK CULTURE	822

ПРАВОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ЕГО ФОРМИРОВАНИЕ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА	828
ИЗУЧЕНИЕ КАДРОВ В ПОСЛОВИЦАХ С УЧАСТИЕМ «ВЕРБЛЮДА»	833
ZAMONAVIY LUG‘ATCHILIK TARAQQIYIT BOSQICHLARI	839
ИЗУЧЕНИЕ ЯЗЫКА КАРАКАЛПАКСКОГО ГЕРОИЧЕСКОГО ЭПОСА	843
ETHNOONYMS OF BUKHARA	848
“TEMUR MALIK” ASARIDAGI GIDRONIMLAR	855
MAIN GENRES AND FEATURES OF VIRTUAL COMMUNICATION	860
ПРОБЛЕМЫ ЯЗЫКА И СТИЛЯ В ГРАЖДАНСКОЙ ЖУРНАЛИСТИКЕ	864
О ВЫРАЖЕНИИ НЕКОТОРЫХ АВТОРСКИХ РЕЧЕВЫХ НЕОЛОГИЗМОВ В ПОЭЗИИ МУХАММАДА ЮСУФА	870
XALQ OG‘ZAKI IJODIDA MAKTUBLAR	877
ПРОБЛЕМА КОНЦЕПТУАЛЬНОГО И НОВЕРБАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ	881
XALQ SHE‘RIYATIDA GUL SO‘ZI ASOSIDA OBRAZLILIKNING VUJUDGA KELTIRILISHI	889
ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ЖИВОТНЫХ В ДЕТСКОЙ ПОЭЗИИ (НА ПРИМЕРЕ СТИХОВ АНВАРА ОБИДЖАНА)	893
ЖИВОТНЫЕ СИМВОЛЫ В ТВОРЕНИЯХ РАУФ ПАРФИ	898
ЧЎЛПОН ШЕЪРИЯТИДА ТАБИАТ РАМЗЛАРИ	902
ETYMOLOGICAL EXPLANATION OF THE PHENOMENON OF SONG AND THE PROFESSION THAT DENOTES IT	906
СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ СТУДЕНТОВ ОБ УЗБЕКСКОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ФОЛЬКЛОРЕ	911
GENESIS AND DEVELOPMENT OF THE CONCEPTION AND THE CONCEPT “ROAD”	915
ОБРАЗНЫХ ПРИЕМОВ И ПОЭТИЧЕСКИХ ФИГУР, ХАРАКТЕРНЫХ ДЛЯ ТЕКСТОВ ЭССЕ	919
ПРО УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ АНЕКДОТОВ	924
О НЕКОТОРЫХ ЭТНОНИМАХ В «ДЕВОН» М. КОШГАРИЙ	931
YOZUVLAR TARAQQIYOTIDA BOBURNING O‘RNI	936
ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПАРЕМ, СОЗДАНЫХ НА ОСНОВЕ ЛСГ «НАСЕКОМЫХ»	942
J. K. ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARINING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI	948

THE PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF COORDINATING CONJUCTIONS	959
ЧАСТНЫЕ ТЕРМИНЫ В НЕЧАСТНЫХ ДИСКУРСАХ	964
КИНОЛИНГВИСТИКА В КАЧЕСТВЕ ОТРАСЛИ ЯЗЫКОЗНАНИЯ . . .	969
НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ОБ УПОТРЕБЛЕНИИ СЛОВ В МЕДИЦИНСКИХ РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТАХ	974
ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ И МИРОВОГО ОБЩЕСТВЕННО-ЛИТЕРАТУРНОГО ДВИЖЕНИЯ . . .	978
ИМЕНА, ОБРАЗОВАННЫЕ НА ОСНОВЕ ИМЕНИ ЧЕЛОВЕКА. (БУХАРСКАЯ ОБЛАСТЬ, ВОБКЕНТСКИЙ РАЙОН НА ПРИМЕРЕ)	985
ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СЕМАНТИКА МОДАЛЬНОСТИ	989
ВЗАИМОСВЯЗЬ ЛИЧНО-ОПИСАТЕЛЬНОЙ ЛЕКСЕМЫ И СЛОВСОЧЕТАНИЯ	994
МОЛЧАНИЕ – ЕДИНСТВО, РАСКРЫВАЮЩЕЕ ВНУТРЕННЕЕ СОСТОЯНИЕ ЧЕЛОВЕКА	997
ЛИНГВОПОЭТИКА ПОЭЗИИ ХАЛИМЫ ХУДОЙБЕРДИЕВОЙ И СПОСОБНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАТЬ ЯЗЫКОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА	1006
ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ . . .	1013
ТВОРЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ У СТУДЕНТОВ УЗНАТЬ ВОЗМОЖНОСТИ ЭМПИРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ	1019